

Qisqa o‘y-fikrlar

Adham Sharqoviy



Ushbu kitob yosh arab yozuvchisi Adham Sharqoviyning “Qisqa o‘y-fikrlar” (تأملات قصيرة جدا) asarining o‘zbekcha tarjimasi bo‘lib, siz aziz o‘quvchilarimizga mutolaa qilib, baho berishingiz uchun e‘lon qilinmoqda. Shuni eslatib o‘tishimiz kerakki, kitobdagi ba’zi o‘y-fikrlar tarjimaga kiritilmadi. Tarjimada ishtirok etgan barcha insonlarga duo-i xayr qilib qo‘yasiz degan umiddamiz. Maroqli mutolaa tilab, tarjimonlar!

22.02.2020

Tarjimonlar guruhi:

Abror Hasan o‘g‘li

A‘zamov Asadulloh

Boborajabov Muhammadiqbol

Inog‘omov Fayzulloh

Nurillayev Abdurrahim

Sultonov Abdurrahmon

Shamsuddin Sadruddin

Bag'ishlov

Bir kuni menga: "Ikki narsaga hech qachon ishonma - ayollarning ko'z yoshi va erkaklarning qalbi, ikki narsani esa hech qachon yolg'onga chiqarma - erkaklarning ko'z yoshi va ayollarning qalbi", deb aytgan, bu bilan menga universitetlar o'rgata olmagan narsani o'rgatgan qariya ayolga...

Men undan (o'z) menim ila minnatdorman! U menga hayotni qanday "yutish" kerakligini o'rgatdi.

Muqaddima

Johiliyat davrida arab qabilalari shoirning (kelishi) xushxabari berilsa, uch kecha urush maydonlarida alanga yoqishar edi.

Shoirlar ularga qasidalar ila mahoratlarini ko'rsatishar, balog'atlari bilan hursand qilishar edi. So'z san'atida qisqalik san'atini boshqa san'atlarga qaraganda o'zgacha bir o'ringa qo'yar edilar. O'tgan ajdodlar ketidan yangi avlodlar keldi. O'shanda Jurjoniylar: "Balog'at bu mo'jazlikdir!" dedi.

Xalifa voliysini Qum (shahri)dan bo'shatishni istagan paytida kotibiga: "Unga bo'shatilishi haqida qisqa qilib yoz!" dedi. Shunda kotibning quyidagi so'zlarni yozishdan boshqa chorasi qolmadi: "Qum (shahri) voliysiga! Biz seni tayinladik va bo'shatdik! Endi tur!"

Agar balog'at egalari gapdagi ezmalikni ko'rsalar buni bir ayb deb bilar edilar. Faqatgina zarurat taqozo qilsa va tafsilotga ehtiyoj tug'ilsagina gapni to'liqroq qilishar edi.

Ehtimol men: "Twitter arab tili uchun katta xizmat qildi", desam mubolag'a qilmagan bo'larman. Yozuvchi birgina risolasida 140 dona harfni ishlatishi belgilab qo'yilganidan, yozuvchilar bor mahoratlari bilan hunarlarini ishga solib, so'zlarning ko'pligiga qaramay ko'rinishning hajmiga, fikrning sifatiga e'tibor berishdi. Mana shuning o'zi balog'atning so'nggi ta'rifi edi. Yozuvchilar fikrning go'zal uslubda va kam sonli so'zlar ishlatib ifodalanishida bir birlari bilan musobaqalashdilar.

Bu gaplarni "balog'at" ga da'vogarlik qilish uchun keltirmadim. O'zimga chiroyli iborani nisbat berish uchun emas, balki men o'quvchiga kitob haqida ozginagina ta'rif berib o'tyapman.

Qo'lingizdagi ushbu kitob "chug'urlashlar" ("twit"lar) dan iborat. Alloh bularning kitob bo'lib jamlanishini iroda etdi. So'ngra nashr etildi. Aziz kitobxon, mutolaangiz maroqli bo'lishini tilayman!

1

Kimnidir qarindoshlari sababli uyaltirishdan oldin:

- Nuhning oq bo‘lgan o‘g‘li;
- Ibrohimning mushrik otasi;
- Lutning kofira ayoli;
- Osiyoning “Men sizning eng oliy Rabbingizman!” degan eri;
- Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning Abu Lahab (cho‘g‘ egasi) ismli amakisi bo‘lganini esla.

2

Kim senga tavozeli bo‘lsa, uni shunday darajaga ko‘targinki, hattoki u seni “mendan boshqasini ko‘rmayapti”, deb hisoblasin. Kim senga kibr ila muomala qilsa, uni shunday darajaga tushirginki, hattoki meni ko‘rmayapti”, deb o‘ylasin.

3

Mag‘lubiyat (omadsizlik) bu – vaqtingni uni to‘g‘irlash uchun ketgazgan kishingni seni sindirishidir.

4

Insonlarning eng shijoatlisi gunohlardan eng qo‘rqadiganidir.

Insonlarning eng kattasi haqning oldida eng kichik bo‘lganidir.

5

Ba’zilar uzoqdan chiroyliroq. Shunday ekan o‘zing bilan ular orasida masofani saqla!

Birgina masofa Yerning Quyoshdan nur va issiqlik olishiga imkon berdi. Yer ham ba’zi yaqinlashishlar yong‘in ekanligini “bildi”.

6

Er ayoliga dedi: Tuzni uzatib yubor!

Ayol aytdi: Sizga tuz sepib beraymi?

Er javob qildi: Yo‘q, men o‘zim sepaman. Chunki sening barmoqlaringda tuz shakarga aylanib qoladi...

7

“Bas, u qavmini laqillatdi va ular unga itoat qildilar¹...”

Bu Allohning borliqdagi sunnatidir.

Qayerda beaqlar topilsa, mustabidlar ham topiladi.

8

Sevgi o‘z xalqiga zarar bermasdan boshqalarni qul qilishning eng yaxshi usulidir.

9

Uyqu bedorlikka dedi:

Kel bo‘lishib olamiz...

Senga yostig‘ining oq bo‘lishiga e’tibor beradiganlar. Menga qalbi oq bo‘lishiga e’tibor beradiganlar.

Shu kundan beri insonlar uxlaydi, boshqalari bedor bo‘ladi. Agar sen ham bedor bo‘lsang, qalbingni tekshirib ko‘r.

10

Maktub yozib, shisha idishga joylab, dengizga otadigan odam, dengiz hech kimga xat tashuvchilik qilmasligini bilar edi. Shunchaki, ba’zida yozishga ehtiyoj tug‘iladi.

11

¹Az-Zuxruf, 54-oyat

Ikki kishi “**Va tunni libos qildik**”² ma’nosini biladi:

Hech kim ko’rmasdan to’nashni xohlagan o’g’ri.

Hech kimning yupatishisiz yig’lashni xohlagan qalbi singan kishi.

12

Ey olim, bugundan e’tiboran bir xil bo’lib qoldik: oxirgi aql tishimni oldirib tashladim.

13

Unga ayoli dedi: O’zgasiga uylaning. Sizning ham farzandli bo’lishga haqqingiz bor.

Eri esa unga dedi: Onasi sen bo’lmagan bolaning dunyoga kelishiga hojat yo’q.

14

Ikki kishi ixtilof qilmaydigan haqiqat bu – o’lim.

Va biz u bilan xuddi xayoldek muomala qilamiz.

Ikki kishi ixtilof qilmaydigan xayol bu – abadiylik.

Va biz u bilan xuddi haqiqatdek muomala qilamiz.

15

Dunyo uchun biz benzokalonkadan o’zga narsa emasmiz.

16

Uxlayotgan millatni uyg’otish uxlashni xohlayotgan millatni uyg’otishdan osonroqdir.

17

Agar haq va quvvat ajralsa, inson ma’danlarini bilish oson bo’lib qoladi.

² Naba, 10-oyat

18

Kam maosh muammo emas, lekin ko‘p maosh egalari bu holatni shunday tuyuladigan qilib qo‘yishgan.

19

Sukut hikmat emas. Balki qo‘rqoqlarning hikmat libosiga berkinmoqlari uchun vositadir. Olamga qaragin va baqir: “Baloga yo‘liqqur! Men yashash uchun keldim. Yashayman ham, agarchi o‘limim yashamoq uchun yagona yo‘l bo‘lsa ham!”.

20

Biz tozalikka o‘ta e‘tiborli xalqmiz. Shuning uchun mayyit va pul yuvuvchilarni qattiq hurmat qilamiz.

21

Agar sadoqat yer uchun bo‘lganida, Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) Makkani tark etmasdi.

Agar qabila uchun bo‘lganida, Quraysh bilan urush qilmasdi.

Agar oila uchun bo‘lganida, Abu Lahabni ayblamas edi.

Va lekin e‘tiqod tuproq va qondan ko‘ra qimmatroqdir.

22

Agar xohishlaringni bajara olmasang, uslublaringni o‘zgartir, xohishlaringni emas.

Daraxtlar ham barglarini o‘zgartiradilar, ildizlarini emas.

23

Nuh (alayhissalom) hayvonlarga bir marotaba nido qildi va ular kemaga minishdi. Insonlarni 950 yil da‘vat qildi, biroq ular cho‘kishni tanlashdi. Sog‘lom instinkt, kasal aqldan yaxshiroqdir.

24

It kiyikdan so‘radi: “Nega har doim meni ortda qoldirasan?”.

Kiyik javob qildi: “Chunki men o‘zim uchun yuguraman, sen bo‘lsa xo‘jayining uchun yugurasan”. Haq uchun kiyik bo‘lish qo‘lingdan kelmasa, botil uchun it bo‘lma.

25

- Hudhud bir millatning Islomiga sabab bo‘ldi;
- chumoli qo‘shin yo‘nalishini o‘zgartirdi;
- qarg’a Odam bolalariga dafn qilishni o‘rgatdi;
- baliq bir Payg’ambarga boshpana berdi;
- fil Ka’bani buzishdan bosh tortdi.

Ko‘pchilik insonlar hayvonlarga o‘xshaydi. Biroq ulardan yomonroqlar.

26

Bu olamda ba’zilar shirmoy nondan semirishdan qo‘rqib qochishadi.

Boshqalar esa ochlik sababidan uning ketidan chopishadi.

27

Hamma atrofimda...

Lekin sensiz yolg‘izman.

28

Insonlar xabarlarda o‘limlar raqamidir.

- oshxonalarda yemoq uchun og‘izlar;
- banklarda talonchilik uchun cho‘ntaklar;
- qamoqxonada bo‘lsa, savalamoq uchun kuraklardir.

Bizdan hech kim o‘zgani inson sifatida ko‘rmay qo‘ydi.

29

Bolaligimda onamning ko‘ylagim tugmalarini taqishi-yu, sochimni tarashi g‘ashimni keltirardi. Tezroq dunyoga chiqqim kelardi. Hozir bo‘lsa, birgina tugmani qadashlari uchun dunyoyimni sotaman.

30

Hijob masalasida:

Islomni kiyim bichib, musulmalarni kiyishga majbur qilgan tikuvchi deb o‘ylashadi.

Va bilishmaydiki, Islom odobdir. Axloqni bichib bergan va ular (ayollar) axloqlariga munosib ko‘ylak tanlaganlar.

31

Sog‘lom inson qilgan xatosi uchun nadomat chekadi. Beg‘ubor inson esa qilmagan savobi uchun nadomat chekadi.

32

Oldingdagi varaqni chigirtka singari tugatish uchun o‘qima. Balki chumchuq singari dona-dona qilib o‘qi.

33

Yetmish yoshlardagi kishi bir marta menga aytgandi:

O‘zing sevgan ayol sababidan seni sevgan ayolni tashlab ketma;

Sigaretni yondirmoq uchun o‘rmonni yoqma;

O‘lishingdan oldin yashashni esda saqla.

34

Menga oxirgi aytgan so‘zlari:

O'g'lim, senga maslahatim o'zing bo'l! Men bilaman, sen menga hech qachon quloq solmaysan va doimo o'zingdan boshqa bo'lishga urinasan. Lekin bir kuni kelib hayot faqat o'zigina bo'lgan kishilarning ismini saqlab qolishini tushunib yetasan.

35

Ibrohimning qalbi Ismoilga mehr qo'yganda, Alloh uni so'yishni buyurdi.

Ya'qubning qalbi Yusufga mehr qo'yganda, Alloh uni olib qo'ydi.

Alloh yaxshi ko'ruvchilarni yaxshi ko'rgan narslari ila sinaydi, toki unga xolis bo'lmoqlari uchun.

39

Mahzunlik maktabga o'xshaydi...

Zerikarli va odamni chachatadigan. Lekin ta'lim olmoq uchun eng munosib joy.

Quvonch qahvaxonaga o'xshaydi...

Yupatuvchi va yengil. Lekin senga hech narsani ta'lim bermaydi.

40

Mag'lubiyatdan ko'ra og'irroq narsa faqat ko'maksiz tashlab qo'yishdir.

Mag'lubiyat bizga dushmanlarni taqdim qilsa, ko'maksiz tashlab qo'yish do'stlarni ulashadi (ya'ni og'ir vaziyatda kim do'st ekanini bilib olasan).

41

Afsuski, biz urzul-Buxoriy³ haqida, Sahihi – Buxoriydan ko'ra ko'proq narsa bilamiz.

42

³Arab yurtlarida milliy taomimiz hisoblangan oshni urzul – Buxoriy deb atashadi.

Insonlar jarohatlar uchun sabrdan ko‘ra yaxshi bog‘ichni va shikoyatdek kir dokani bilmaydilar.

43

Hayotdagi eng muhim qoida - hayot uchun hech qanday qoida yo‘qligini bilmog‘ingdir.

44

Ey ayollarini nasablaridagi tengsizlik uchun taloq qilishni xohlaydiganlar, bilib qo‘ying: Bilol Habashiy, Suhayb Rumiy va Salmon Forsiy⁴ jannatga ketdi, Abu Lahab Qurayshiy esa do‘zaxga...

45

Men o‘sha bir kuni dorixonachiga degan kishiman:

- Menga onamning barmoqlarini bergin

- Onangizni barmoqlari, nima u?

- Uyqusizlikka qarshi dori. Oldinlari bedor bo‘lganimda boshimni silardilar-u, uxlab qolardim.

46

Ilmning to‘rtidan uch qismi bilimsizligingni qanday yashirishni bilishingdir.

47

Jannat va do‘zaxning farqi:

Jannatning birgina uzun yo‘li bor.

Ammo do‘zaxning qisqa yo‘llari ko‘p!

48

⁴Alloh barchalaridan rozi bo‘lsin (roziyallohu anhum)

Agar Islomda tiriklayin farzandlarni ko‘mish bo‘lganda Makka davridayoq Islom tugardi.

Agar qamalga bardoshsiz bo‘lganda u Xandaqda tugardi.

Agar taslim bo‘lish bo‘lganda mo‘g‘ullar davrida tugardi.

49

Kahf surasidagi yigitlar...

Chuqur egalari qissasidagi rohib...

Hijratdagi payg‘ambar...

Hammalari g‘ordan panoh topishgan.

Insonlar qalblari qotgan payti tog‘lar “qalb”lariga bu dinni tilovat qilishgan!

50

Hayotlarini darvozabonlardek o‘tkazadigan kichilarga achinaman.

Doim xavotirda va tayyor.

Ularning do‘stlariga va dushmanlariga bo‘lgan xavotirlarining natijasi tengdir.

51

Yoshi ulug‘lar bomdod namozida...

Ajinli qo‘llar va go‘zal toblangan qalblar.

52

Qafasga bug‘doy sepgan kishi uni chumchuqlar ko‘zi tushadigan joyga qo‘yadi.

Uni oldiga hech kimni sotuvchilikka qo‘ymaydi, toki qushlar uni sotib olmasinlar.

53

Hayvonlar o‘z turlarini saqlab qoldilar.

Ba‘zilari xonaki, ba‘zilari yirtqich.

Faqatgina biz barchamiz yirtqichga aylanib oldik!

54

Zamonamizdagi buyuklar:

Kechalarini o‘ralarda o‘tkazuvchi yigitlar;

Kechasi qo‘riqlab chiqqan ko‘z va kechasi Allohdan qo‘rqib yig‘lagan ko‘z va bamdod namozi yo‘lida hassalari egilgan chollar.

55

Insonlar Sayyidi aytdi:

“Musulmonlar boshqaga qarshi bir qo‘ldir”.

Bizlar bo‘lsak faqat gapiramiz, xuddi "Musulmonlar bir og‘izdir", degandek!

56

Muammo bu shijoatlining haqni ko‘rmasligi va ko‘zi ochiqning qo‘rqoq bo‘lishidir.

57

Ibrohim o‘g‘liga so‘yilishlikni talab qildi, bajardi.

Nuh o‘g‘liga jonini saqlashni buyurdi, bajarmadi.

Ba’zi yaxshiliklar orqasi dahshat, ba’zi yomonliklar orqasi ajib!

58

Betaraflik insonlargadir...

Ammo hayvonlar haq yoki botil safidan joylarini egalladilar:

Kaltakesak Ibrohimga o‘tni pufladi.

G‘ardoq yahud daraxti (orqasiga berkingan yahudni xabarini beradi).

Uhud yesa, bizni yaxshi ko‘radi va biz ham uni.

59

O'tgan tarixga ko'ra:

- qachon o'g'rilar hokim bo'lsa, omonatdorlar qamaladi.
- qachon buzg'unchilar hokim bo'lsa, islohotchilar qamaladi.
- qachon johillar hokim bo'lsa, olimlar qamaladi.

60

Ko'pincha buvimni shunday deyayotganlarini eshitar edim:

“Hech kim umri noqis bo'lib o'lmaydi!”

Alloh buvimni rahmatiga olsin, ularga: “Hech kim umri noqis bo'lib o'lmaydi. Lekin ko'pchilik hayoti noqis bo'lib o'lmoqda”, deb aytmasimdan oldin vafot etdilar.

61

Islom kechiruvchan dindir. Bu uning quvvatidan, zaifligidan emas.

Insonlarga g'alaba qilganda "Ketaveringlar, sizlar bo'shsizlar", deydi.

Ularga jang qilganda esa " Qani kelinglar, dushmanlar", deydi.

62

O'zi haqida gapirayotgan kishini va boshqa ayollar haqida gapirayotgan xotinni tasdiqlama!

63

Har holatda o'zgacha bo'l!

Ojiz qolsang boshqalarga o'xshashga boshingni qotirma. Zero hech kim boshqalardan ajrashga boshini qotirmaydi.

64

Kishilarni ko'pini mashg'ul qiladigan narsa g'oyalar va ayollardir:

Kimni g'oyalar mashg'ul qilsa u haqida "Buyuk", deydilar.

Kimni ayollar mashg'ul qilsa, u haqida "Tashlab ketilgan", derlar.

65

Eng kichik qayiqchi ham dengiz haqida biladi.

Uni biladiganlarning ko'pi esa portlari kattasidir.

66

Sendan qutulishim uchun qalbimni kesib tashlashim kerak. Lekin qudratimga ishonдим va mag'lub bo'ldim. Va natijada: men senga aylandim!

67

Haq va botil o'rtasida kurash har zamonda bor. Lekin askarlari o'zgarib turadi.

68

Tomoshabinlar aerodromga o'xshaydilar.

Boshqalarni samolyot zinasigacha eltib o'zlari uchishga qo'nishadi!

69

"Savdo"ning kasod bo'lishining ilk qadami, bandalikdan burilishdagi ilk qadamdir.

70

Tushlarini faqat ibn Siyriyn kitobidan bahs qiluvchi ummat...

Aql yuritmaydigan uyquchi ummatdir.

71

Bu sayyora olimlari bechoralardir.

Yorug'lik koinotdagi eng tez narsa deb o'ylashadi.

Bilishmaydiki, duo osmon va yer masofasini soniyadan kam vaqtda bosib o'tadi.

72

Hech ilon o'z zaxridan vafot topgani aytilmaydi. Chunki bu fitratida bor.

Lekin adovatchining adovati o'zini o'ldiradi. Chunki bu tabiiy fitratda yo'q.

73

Agar bizlar farishtalar hisob daftariga yozadigan narsalarini bank xodimlari yozadigan narsalaricha ahamiyatli deb bilganimizda, yo'llarda farishtalar bilan qo'l berib ko'rishgan bo'lardik. Lekin biz ba'zilar bilan ko'rishganimizdan faxrlanib yuramiz!

74

Agar faqirlik "bir kishi" bo'lganida, shahrimizda ko'p kishilar mashhur bo'lishardi.

75

O'g'ri va siyosatchi o'rtasida farq:

O'g'ri qonun bilan hisoblashib o'tirmay seni tunaydi. Siyosatchi bo'lsa avval qonun chiqaradi, so'ngra u bilan seni tunaydi.

76

“U (ona) u (Muso)ning opasiga: «Izidan bor», dedi. Bas, uni bir chetdan ko'rdi. Holbuki, ular sezmasdilar”.⁵

Islomiy razvetka ilmidan xulosa qiluvchi oyat. Ishi muhim shaxs, a'lo darajada maxfiylik, shubha tug'dirmaslik.

77

Ko'pincha bizni kamchiligimiz boylik kamligida emas, qanoat kamligidadir.

78

Jangda o'lish xunuk o'lim emas,

⁵ Qasos, 11- oyat

"Diyor" ahlidan bo'lishdir.

79

Kulishga sabab ko'p.

Asosiysi yoshlar tugasin.

80

Birov senga haqiqating achchigligidan xabar bersa, u senga haqni aytibdi.

Biz boshqalar haqidagi haqiqatlar bilan rohatlanadigan bo'ldik.

81

Yomg'ir qanday yog'ishini bilasanmi?

Derazani ochasan va opasiga bulutdan "Kel, ichamiz" deysan.

82

Insonlar o'rtasidagi farqlar bobi:

Robbisi o'g'lini so'yishga buyurdi, bajardi. Holbuki boshqa farzandi yo'q edi.

Robbisi bitta sigir so'yishga buyurdi, bosh tortishdi. Holbuki oldilarida ko'p sigirlar bor edi.

83

Ularni behuda gapda ayblaymiz.

Tushunmaymizki ularning sukutlari behuda gap gapirishlaridir.

84

Tonglari faqat bir tovush bilan boshlanadi, deb o'ylovchilarni Masjidul Haramdagi Mahir al-Muayqaliyning bomdoddagi qiroati tarozida tortadi: "Bas, tunga kirishingizda ham, tongga kirishingizda ham Allohni poklab yod eting".

85

Bu olimni jinni deb o'ylashing, aqling tugaganidandir.

86

Jinoyatchi: Urushni kim ochadi?

Qo'rqqoq: Kim urushdan qochsa unga urush ochiladi!

87

Har kuni quchoqlaydigan avlodlarim bugun bir kishini so'kishsa, katta bo'lganlarida meni nima qilisharkin.

Axir ularga har kuni uqtirardimki: "Odamlardan ta'lim oling, lekin arab ekaningizni unutmanglar!"

88

Sukut hikmatdir.

Yer yuzida eng hakimlari ko'pi jamoat bizmiz.

Sukut bu oltin bo'lsa, biz kon ichida yashaydigandekmiz.

89

Fikrlashda lug'atdan behojatlik yo'q, lug'atda ham fikrdan behojatlik yo'q.

O'rtalaridagi aloqa ruh va jasad aloqasi kabidir.

Jasadsiz ruh faqatgina sharpadir, ruhsiz jasad esa bir jussa, xolos.

90

Abu Jahldan Makka buyuklari Islomga qarshi jangga kirganda, Islom jaholatga qarshi jangga kirib buyuk bo'ldi.

91

Biz natijaga mas'ul emasmiz.

Balki o'sha natija yo'lidagi sabablarni ushlashga mas'ulmiz.

Bas, qiyomat kuni bir kishi ham iymon keltirmagan payg'ambarlar keladi!

92

Chayladagi kir yostiqlar uyqu qochirmaydi.

Qasrdagi yumshoq yostiqlar uyqu keltirolmaydi.

Siri shuki, hamma ayb qalb pokligida, yostiqda emas!

93

Hissiz odam yo'q!

Qanday his qilishini biz bilmaydigan odam bor.

94

Tuxumlarni hammasini bir savatga solma, sinadi deyishadi.

Muammolarimiz tuxumdek bir kunda bo'lmaydi-da.

Balki qalb bilan bir savatga solinadi.

95

Ortiqcha takalluf go'zal aldovdir.

96

Botil nido qildi, ko'pchilik yig'ildi.

Haq nido qildi, eng yaxshilar jamlandi.

Botil miqdorni qidirsas, haq navlisini qidiradi.

Botil ko'payishganidan shikoyat qilsa, haq bosh (lider)lar ozligidan shikoyat qiladi.

97

Uning oldida million soatni sotib olishga yetarli moli bor edi.

Ajali kelganda bir daqiqa ham sotib ololmadi!

98

Insonlar e'tiborsizlikdan xuddi nihol suvsizlikdan qurigandek quriydi.

99

Agar varaq bo'lganimda Mus'hafdan bir sahifa bo'lishni istardim.

Agar mato bo'lganimda joynamoz bo'lishni istardim.

Agar tayoq bo'lganimda meni hassa qilib bomdod namoziga boradigan cholning hassasi bo'lishni istardim!

100

Nodon erkak mashhurlik xohlasa tilini cho'zadi.

Nodon ayol mashhurlik xoxlasa kiyimini kaltalatadi.

101

Vatan tuprog'i ajib!

Uni qancha toptasak shuncha ko'p sevamiz...

102

Umar mahr chegarasini belgilab qo'yishni istadi. Shunda bir xotin: "Senga **"Ularning biriga haddan ziyod mahr bergan bo'lsangiz ham, undan hech narsani qaytarib olmang"**⁶ oyatiga qarshi chiqish halol bo'lmaydi", dedi.

Umar: "Ayol to'g'ri aytdi Umar xato qildi", dedi.

Agar hokim haqda to'xtovchi bo'lsa, boshqa hech kimga hojat yo'q.

103

"Arab davlatlari ligasi" qurbaqaga o'xshaydi. Agar ovozi bo'lmasa, borligini hech kim sezmaydi ham.

104

⁶ Niso, 20-oyat

Botilga, agarchi uni sen yaxshi ko'rgan insoning olib kelsa ham ergashma.

Haqni esa, garchi uni sen yomon ko'rgan kishing olib kelsa ham rad etma.

105

“Albatta, namoz fahsh va munkar ishlardan qaytarur”.⁷

Shu oyat orqali namozimiz ibodat bo'ldimi yoki badantarbiya bilib olamiz.

106

Tabib ayolga dedi:

- Qand kasalligi sizni tamom qilibdi, hoji ona. Ikkinchi qo'lni ham kesish kerak!

Ayol:

- Bir hafta kutib turishning iloji bormi? Chunki o'g'lim samalyotga chiqqanda shu qo'limni unga silkitishni istayman...

107

Ilm ostida ota erkak bo'ladi, hayot ostida esa ona ularni erkak qiladi.

108

Ba'zan aytilishi kerak bo'lgan barcha gap aytib bo'lingandek tuyiladi menga. Va hozir aytadigan barcha gapimiz aytib bo'linganlarni bir shaklda qaytarishdir, xolos.

109

Onajon! Men xuddi qo'shin “matros” bilan himoylanganidek siz bilan himoyalanişga muhotjman.

Xuddi xo'l chumchuq devordagi tuynukka qochib uchganidek men siz tomon qochishga muhtojman.

Xuddi yer yoriqlaridan tashqariga chiqqan kishining nafas olishi kabi siz ila nafas rostdashga muhtojman.

⁷ Ankabut, 45-oyat

110

Men sizlarni “Islom yechimdir” degan paytingizda tasdiqlayman. Endi sizlar ham meni muammoni aytgan paytimda tasdiqlanglar!

111

Qahvangni ho’plab ichganingda birinchi bo’lib qahva “oh!” deydimi yoki piyola?!

112

Tafovut:

- Nuhning o’g’li payg’ambarning uyida turib kofir bo’ldi;
- Ozarning o’g’li esa payg’ambarlar otasiga aylandi;
- Yusufning akalari uni quduqqa uloqtirishdi;
- baliq esa dengizda Yunusni qutqardi;
- Fir’avnning ayoli (Osiyo) da jannatda bir qasr bor;
- Lutning ayolida esa do’zaxda bir qarorgoh;
- Hudhud g’ariblarni jannatga chaqirdi;
- Fir’avn qavmini do’zaxga yetakladi;
- Alloh Odamning yerda bo’lishini taqdir qilganda Iblis osmonda edi. Odam jannatga qaytdi, Iblis do’zaxga kirdi.
- Makka o’z farzandini quvdi;
- Madina esa unga boshpana berdi;
- xoda Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning firoqlarida ovoz chiqardi;
- u zotning amakisi esa yo’llariga tikanlar qo’ydi;
- bashar payg’ambarni o’tga tashlasa, hayvonlar uni o’chirishga harakat qilishadi;
- Iyso otasiz dunyoga kelgan bo’lsada payg’ambar bo’ldi;

- Ko'pchilik a'robiylar sanamlarga ibodat qiladigan ota-bobolarining dinida o'lib ketishdi;

- jinlar Qur'onni xushu' bilan eshitishsa, Ukoz bozoridagi kishilar quloqlarini barmoqlari bilan berkitib olishdi;

- chumoli bir payg'ambarning butun boshli qo'shini yo'nalishini o'zgartirdi;

- inson Ka'bani buzish uchun bir qo'shinni boshqardi...

113

Odamlarning ma'siyatlari da'vatchilarning qo'polligiga oqlov bo'lmaydi.

Fir'avn "Men sizlarning eng oliy Rabbingizman" deganidan keyin Alloh unga "yumushoq gap" aytishi uchun Payg'ambar yubordi.

Hech kim Allohdan ko'ra diniga g'ayurroq emas!

114

(Xizr teshib qo'ygan) kema egalari, agar teshik bo'lmaganda kemalarini yo'qotishlaridan bexabar holda vafot etdilar.

(Xizr o'ldirgan) bolaning oilasi ham, agar bola o'lmaganda ular u bilan fitnaga tushib qolishlarini bilmasdan vafot etishdi.⁸

Katta narsadan najot berishi uchun kichik narsa bilan imtihon qiladigan Zot pok bo'ldi.

115

Johilning davosi (unga) beparvo bo'lishdir.

116

Odamlarning:

- mening aybim pok qalbli bo'lganim;

⁸ Kahf surasining 71-81-oyatlariga qarang!

- mening aybim rahmdilligim;

- meniki esa bag'rikengligimda... deb o'z ayblari haqlarida gapirishayotganlarini eshitaman. O'sha payt yolg'iz mening aytishgada hijolat bo'ladigan ayblarim borligini his qilaman.

117

Hajga ketishimdan oldin onam menga dedilar:

“Anjomlaringga o'ta diqqatli bo'! Makkada ko'zdan surmani olib qo'yadigan o'g'rilar bor. Makkada birgina ko'ksdan yurakni “o'g'irldigan” “o'g'ri” bor. U Mohir al-Muayqaliydir.

118

Bomdod namozida imom quyidagi oyatni o'qiyapti: **“Rozi bo'lishing uchun Men senga shoshdim, ey Robbim”**.⁹

Shunda bir chol oyoqlari ko'tarilib ketguday bo'lib dedi: “Ey Rabbim, sen tomon borishni kechiktirgan bandangni kechir!”

Ularning qalblariga (bu his) qayerdan kelar ekan-a?!

119

Bomdod namozida yer osmondan ko'p ham uzoq emasligini bilib olamiz.

Biz juda katta masofa deb hisoblaydiganimiz narsani birgina sajda bilan bosib o'tish mumkin.

120

Mendan: “Nima uchun sizlar erta uxlaysizlar-u, biz esa uxlay olmay qiynalamiz”, deb so'rama.

Uyqu, ey do'stim, oppoq yostiqlarning hiylasiga uchmaydi.

Uyqu, ey do'stim, pok qalblar bilangina qo'nim topadi.

⁹ Toha, 84-oyat

121

“Bas, Muso ichida xavf his etdi”.¹⁰

Shijoat qo’rqmaslik emas, balki qo’rquvlaringni yashira bilishingdir.

122

Bugun “Xalqaro tinish belgilari kuni”. Shu munosabat bilan men “Arab diyori” so’zini satrga olib, ortidan undov (!) belgisini qo’yaman.

123

Til Allohning zikriga yaqin bo’lish va odamlarning obro’larini to’kishdan saqlanishga buyurilgan.

Qalb esa yosh bolalarga yaqin va bekorchi kishilardan uzoq bo’lishga buyurilgandir.

124

Har safar lug’atlarni o’qiganimda, ajam¹¹ ekanimizga qasam ichib yuboray deyman.

125

Til o’lmasligi uchun ham lug’at topildi. Lekin biz lug’atlarni qabrlarga aylantirib qo’ydik. Har bir gapni birin ketin unga tashlab dafn qildik.

126

Erkak kishi quvvat va omonat bilan maqtaldi:

“Ishga yollanadigan eng yaxshi kimsa kuchli va ishonchli kimsadir”¹² (Muso alayhissalom haqida).

¹⁰ Toha, 67-oyat

¹¹ Arablar arab bo’lmagan xalqlarni shunday nomlashadi

¹² Qasos, 26-oyat

Ayol kishi esa nazokat va hayo bilan madh etildi: **“Bas, ikovlaridan biri hayo bilan yurib keldi”**.¹³

127

Ta’lim:

Erkaklar ayollardan ko’ra ko’proq aldashadi.

Ammo ayollar aldasha erkaklardan ko’ra ko’proq yolg’on to’qishadi.

Biz miqdor, sizlar sifatsiz.

128

“Shuningdek, sizlarni o’rta millat qildik”.¹⁴

Mana shu jasad va ruh orasidagi, dunyodan voz kechish va oxiratni bo’sh qo’yish orasidagi, aqlni mensimaslik va uni ulug’lash orasidagi, hissiyot va g’aybiyot olamlari orasidagi Islomdir.

129

Umar ibn Xattob Shifo bintu Abdullohni bozorga o’lchov nazoratchisi qilib tayinladilar. Bu paytda Yevropada cherkov ruhoniylari: “Yol ichida shayton ruhi yashaydigan insondir”, deb qutulib qo’ya qolishgan edi.

130

Bundan 1400 yil oldin **“Ular (ayollar) bilan yaxshilikda yashang”**¹⁵ oyati nozil bo’lgan.

Keyin esa Zigmund Freyd chiqib: “Ayol kishi faqat erkak xohishlarini qondirsagina to’g’ri bo’ladi” deb aytdi.

131

¹³ Qasos, 25-oyat

¹⁴ Baqara, 143-oyat

¹⁵ Niso, 19-oyat

Nabiy (sollallohu alayhi vasallam) “Ayollar erkaklarning tug’ishganlaridir” degan paytlarida Madinadagi yahudiylar buzilgan Tavrotlaridan quyidagilarni o’qishar edi: “Bizni ayol qilib yaratmaganing uchun senga hamd bo’lsin, Ey Parvardigor!”

132

O’zimga va sizlarga Indoneziyaga safar qilmaslikni nasihat qilaman. Sababi, bu yurtni musulmon tojirlari o’zlarining go’zal axloq va muomalalari bilan fath qilishgan. Yana bir yangi yurtni barbod qilishni istamaymizku axir.

133

Payg’ambarning uyida ulg’aygan inson to’fonga g’arq bo’ldi.

Fir’avnning uyida ulg’aygan esa asosi bilan dengizni yordi.

Qayerda yashashing emas, balki qanday yashashing muhim!

Ibtido emas, balki nihoya muhim!

134

Qo’rquvdagi mubolag’a riyodan bo’lgan bir riyodir.

135

Ko’pincha, o’lishiga sababi bo’lmaganlarning yashashidan maqsadi bo’lmagan bo’ladi.

136

Seni o’zining ortidan yugurishingni istaydigan inson bilan bo’lma!

Hamda sening ortingdan chopayotgan inson bilan ham (aloqada bo’lma)!

Balki uni va o’zingni yonma-yon yuryapmiz, deb his qiladigan kishi bilan birga bo’l.

137

Haqiqiy mayyitlar ko’milganlar emas, balki unutilganlardir.

138

Islomning geografiyadagi ulushi Qur'onning musulmon qalbidagi ulushiga tengdir.

139

Uyqusizlikdagi eng yomon narsa:

Erta uxlaydiganlarning sababidan uxlay olmaganimizni bilishdir.

140

Ba'zilar o'g'rining qo'lini kesish, xamr ichuvchini darra bilan urish va zinokorni toshbo'ron qilishni shariat deb o'ylashadi. Aslida bu shariatdagi ma'lum jazolardir.

Shariat qo'llarni, bellarni va jonlarni muhofaza qilish uchun kelgan.

141

Shariatda oxirgi bo'lib tatbiq qilingan narsa bu hadlardir. Vaholanki, u birinchi bo'lib buzilgan narsa sanaladi.

Shu sababli Umar al-Foruq ochlik yilida o'g'rining qo'lini kesishni vaqtinchalik to'xtatib turdi.

Islom haromning sabablarini oldini olib keyin jinoyatchini jazolaydi.

142

Maqtov borasida aytilgan eng g'o'zal so'z: **“Va albatta, sen ulkan xulqdasan”**¹⁶ oyati.

Va'da borasida aytilgan eng go'zal so'z: **“Va tezda Robbing senga ato qiladir va sen rozi bo'lursan”**¹⁷ oyati.

Mulohazakorlik borasida aytilgan eng go'zal so'z: **“U havodan nutq qilmas”**¹⁸ oyati.

¹⁶ Qalam, 4-oyat

¹⁷ Zuho, 5-oyat

¹⁸ Najm, 3-oyat

143

Ijtihod Islomga ushbu asr xohlagan biror bir narsani qo'shib qo'yish emas, balki ushbu davrga qo'shsa bo'ladigan biror narsa (masala)ni Islomdan qidirishdir.

144

Biror insonga go'zal namuna bo'la olmaganingga yarasha, yomon xotira ham bo'lma!

145

Osmonni olisga ko'targan, uning eshiklarini yerda qilgan, kalitlarini peshonalarga qo'ygan Zotga sajda qilinglar va Undan so'ranglar!

146

Agar biror shaxsning qarashlarini bilmoqchi bo'lsang, o'zi uchun nima qilganiga emas, balki boshqalar uchun nima qilganiga qara!

147

Manfaatlarda turlicha rang bor.

Qarashlarda esa faqat oq va qora. Rejali insonga "klassik" deyish ayb emas.

Ammo manfaat egasiga tomonga o'zgaruvchan deyish ayb.

148

Ko'pincha biz umrimizni birgina "Ha!" so'ziga sarflab yuboramiz. Shu bois "Yo'q" deb turish ham kerak.

149

"Har biringiz mas'ulsiz!"

Bu - jallod bo'lishingni emas, mas'ul bo'lishing kerakligini anglatadi.

150

“Uning ostidan: “Mahzun bo’lma, batahqiq, Robbing ostingdan oqar ariq qildi. Xurmo tanasini silkit, senga yangi meva tushiradi”, deb nido qildi”.¹⁹

Biz nondan ko’ra yumshoq qo’lga muhotjmiz. Sababi biz oshqazon emas, qalb sohibimiz.

151

Ey Muso qanchalar baxtlisiz:

“Men seni ixtiyor qilib oldim”²⁰

“Va senga O’zimdan muhabbat soldim”²¹

“Mening ko’z oldimda yetishtirilishing uchun”²²

“Men seni O’zim uchun tanladim”²³

152

Biror narsani boshlashingdan avval uni qanday tugatishingni o’rgan! Zero qo’nish qushlar o’rganadigan ilk darsdir.

153

Vosita maqsad bo’lib qoladigan inqilobdan yomon narsa yo’q.

154

Menga rostgo’ylik haqida gapirma, meni aldamasang bas!

Menga vafo haqida gapirma, meni sotmasang bo’lgani!

Menga g’oya haqida gapirma , tilingni tiysang kifoya!

Menga jannatga yo’l haqida gapirma, oldimda yursang bo’ldi!

155

¹⁹ Maryam, 24-oyat

²⁰ Toha, 19-oyat

²¹ Toha, 39-oyat

²² Toha, 39-oyat

²³ Toha, 41-oyat

G'urubatning achchigligi haqida gapirayotganlar, to'g'rirog'i, vatanni tuymaganlar!

156

Bomdod namozi uchun budilnik qo'yganlar bor va ish uchun budilnik qo'yganlar bor.

Mana shu narsa ibodatga yaratilganini biluvchi bilan yer haydash uchun yaratilganman, deb e'tiqod qiluvchi inson orasidagi farqdir.

157

Eng go'zal tijorat bu dini uchun moli berilgan tijoratdir.

Eng jirkanch tijorat bu mol uchun dini sotilgan tijoratdir.

158

Avval bormagan yurtlarga borib, oldimdan o'tgan har bir kishini quchib: "Do'stlarim kabi meni tashlab ketmaganingiz uchun sizlarga rahmat, begonalarim!" degim keladi.

159

Jannat barcha o'tgan yo'qotishlarni arzimas qiladigan mukofotdir.

Do'zax barcha kasb qilingan yaxshiliklarni arzimas qiladigan yutqazishdir.

160

Bizga "Inson ijtimoiy hayvondir", deydiganlar "Yer o'rmonga aylanib qoldi!" deyishga o'tib olishdi.

161

Kulib turgan labdan chiqqan qiyin ishlar, xo'mraygan labdan chiqqan yengil ishdan osonroq bo'ladi.

162

Mazlumning xotirasidek kuchli xotira yo'q.

Zolimning xotirasidek zaif xotira yo'q.

163

Modomiki, onangga muhtoj ekansan yoshing katta bo'lsa ham bola bo'lib qolaverasan.

164

Telefonga xizmat ko'rsatish doirasidan tashqarida bo'lgan paytda hasad qilaman, boshqa telefonlar uni bezovta qilolmaydi-da.

165

Humsdan so'rashdi :

- Seni avval hujum qilayotganingni va oxirgi bo'lib chekinayotganingni ko'rmadik.

U dedi: "Otamning aytganidek qilyapman. Bir martada ko'p o'lishning iloji bo'lsa uni qil! Sizlar har kuni ming marta yashab, ming marta o'ldingiz.

166

Bugun menga quyidagilarni aytgan, o'qish yozishni bilmaydigan bir ayolning qabri yonidan o'tdim:

"Ayollarning yoshlari xaroba, qalblari esa sanatoriyadir. Sen ayolning yoshiga ishonishdan va qalbini yolg'onga chiqarishdan ogoh bo'l!"

167

Yaqinlashishlarini yaxshi qiladiganlar ketishlarini ham chiroyli qiladilar.

Tark etishlariga munosib bo'lmaslik uchun sen yaqinlashishlariga munosib bo'l!

168

Odamning xatosi harom qilingan daraxtdan yegani edi.

Iblisning xatosi esa hasad va kibr edi.

Jarohat yetkazadiganlarning gunohiga ko'p hollarda ortga qaytish yo'li bo'ladi.

Muammo qalb gunohida...

169

Men Bayrutga ko'p o'xshashimni sezaman.

Men fundamental narsalar haqida yozaman-u , unga rioya qilmayman.

Bayrut esa dunyoga kitoblar chop etadi-yu, ammo o'zi o'qimaydi.

170

Yoshim katta bo'lgach yo'lni faqat o'zim boshqara boshladim.

Lekin men kiyimingning bir bo'lagini ushlab tuygan xotirjamlik ta'mini sog'inyapman.

Ammo qanday qilib kiyayotgan kiyiming bo'lagiga o'z oyog'imdan ham ko'proq suyanadigan qilib qo'yding!?

171

Soyamni yomon ko'raman, chunki u ba'zida og'ib ketadi!

172

Geografiyaga e'tiborsiz bo'lgan ummat tarixning xorliklarini ko'radi.

Bir kuni Umar ibn Xattob turib xutba qilgan joyda Obamaning turib xutba qilishi sharmandalik.

173

Ey Alloh, osmon qanchalar uzoq-u, Sen qanchalar yaqinsan...

174

G'ayb eshigini duradgor yasolmaydi. Lekin Habibimiz uni yasadi. Qalbimizga mix qoqib o'tib ketdi...

175

Muallim do'stim aytadi : “Vijdoning xotirjam bo'lishi uchun dars farzi kifoya ekanini bilishing kerak. Agar darsni ba'zi o'quvchilar tushunsalar bo'ldi, qolganlaridan soqit bo'ladi”.

176

Agar kalom bo'lganimizda gapda o'rni yo'q eng katta (laa mahalla lahu minal i'rob) jumla bo'lardik.

177

Qizim Fotimaga Nuh (alayhissalom)ning qissalarini aytib berdim. Keyin so'radim:
- Bu qissadan nima dars olamiz?

Bolalarcha soddalik bilan: “Hayvonlar kofirlardan yaxshi ekanligini o'rganamiz” dedi.

178

Tanishuv qog'ozida....

Elektron adabiyot hech qachon qog'ozli adabiyotni yenga olmaydi. Faqatgina agar biz elektron kitobni o'qisak-u yoqtirsak va o'sha kitobning qanday qilib qog'oz shaklidagisini olish haqida so'ramasakkina shunday bo'lishi mumkin.

179

Boshqalarni kuldirish go'zal ish , faqat bir sharti bor: o'zing latifa bo'lmayotgan bo'lsang bo'lgani.

180

Orzularing sababli baxtsiz bo'lishing , orzusiz baxtsiz bo'lishingdan yaxshiroq.

181

Dars:

Qachonki ayolning zakovati osharkan har safar uning farzand ko'rish ehtimoli (xohishi) kamayadi. Onam tanbeh berib derdilar:

“To'g'ri-da, aqlli bo'lsam sendeklarning 10 tasini tug'armidim...”

182

Uhud – bizni yaxshi ko'radigan va biz uni yaxshi ko'radigan tog'.

Oshiqqa aylangan qoya tongi oyog'ing ostidadir.

183

Talabimga binoan fuqarolik vazifamdan ozod bo'lishni xohlayman.

Milliy, maxsus paypoq firmasida ishlashdan charchadim.

Erkin ishda ishlasam.

184

Allohning satrini qarangki, soyamiz bizning qomatimizga qarab yuradi, qalbimizga qarab emas. Agar qalbimizga ergashganida soyamiz emaklab yurardi.

185

Hech kim tushida ko'p yeb-ichib qo'ygani uchun o'lmadi.

Ammo , tushlari qolmaganlar "tirik" o'ldilar.

186

Qurbaqa quyosh ostida toblanib birpasda botqoqni shovqinga toldiradi. Chumoli esa 1 yildan ko'proq churq etmay narsa yig'adi. Qo'l bo'l, tomoq bo'lma!

187

Hunar ahli fazilati haqida bob:

Dag'al qo'l va yumshoq qalb yumshoq qo'l va dag'al qalbdan yaxshiroq.

Imtihon ahli fazilati haqida bob:

Toatga boshlaydigan kesilgan oyoqlar, olovga boshlaydigan sog'lom oyoqlardan yaxshiroq.

188

Bolalar yugurishni o'zlari o'rganib olishadi. Lekin tarbiya ularni yaxshi va yomon yuguruvchi qiladi.

189

Biz dunyoning eng katta iste'mol bozori ekanimizni bilasizmi?

Ha, bizda eng arzon mahsulot bu - inson.

190

Allohning iqobi (jazosi)ga uchragan barcha ummatlarni birlashtirib turadigan narsa bu – ma'siyat. Ammo yahudiylar boshqa ahmoqona sababga ham bog'lanadilar. Ular dam olish kuni ishlashga chiqishgan edi!

191

Sen uchun yo'l bo'laman, oyoq kiyim bo'lmasang bo'ldi!

192

Sizga tungi soqchidan "uyquning narxi bir necha dirham" deganini aytgandim.
Mendan "U arzonmi yoki qimmatmi?" deb so'ramang.
Har bir qo'lda ushlab ko'rilmaydigan narsa qimmatdir.

193

Nafs olimlari (psixologlar) yolg'izlik unchalik xavfli kasal emas, deydilar. Xuddi sizlar aytayotganingizdek.

Mana men shunday kasalman va undan davolanmoqchiman.

194

Eng birinchi buyrug‘i “O‘qi!” bo‘lgan dinning ilm bilan qarama-qarshi kelishi mumkin emas!

Buyruqlaridan oxirgisi “Taqvo qilinglar!” bo‘lgan Kitobning urush dini bo‘lishi mumkin emas.

195

Menga aytishdi:

“Majnun oshiqqlarning unuta olmaslik azobi haqidagi so‘zlariga ishonib o‘tirma! Unutish ular o‘ylagandan ko‘ra ancha oson. Mana masalan, shaxsan o‘zim, sevgan ayolimni kuniga yuz marotabalab unutaman”.

196

Men millionlab insonlar nonga zor bo‘lib turgan dunyoda yaxshi ko‘rgan ayolimga qizil atirgulli buket sovg‘a qilishdan uyalaman.

197

Menga shariyat o‘rgatdiki: Qur’ondan fatvo olinadi, Qur’onga fatvo berilmaydi.

Albatta Alloh taolo uni tiriklar amal qilmog‘i uchun nozil qilgan, o‘liklarga o‘qilishi uchun emas.

198

Biz musulmonlar yurtida qushlar och qoldi, demasliklari uchun tog‘larimizga bug‘doy sepib qo‘yadigan ummat edik.

Bugun esa shoshilinch xabarlarimizdan:

“Yarmuk lageridagi²⁴ bolakayga non berildi!”

199

²⁴ Yarmuk qochoqlar lageri – Suriya poytaxti Damashqdan 8 kilometr uzoqlikda, 1948-yilgi Falastin halokatidan so‘ng bunyod etilgan. Manbalarga ko‘ra, ushbu lager 1954-1957-yillar oralig‘ida qurilgan. Ma'lumotlar "Yarmuk" qochoqlar lageri falastinlik qochoqlar uchun mo‘ljallangan eng katta lagerlardan biri ekanligini aytadi. Qochoqlar lageri 2 km. kv. maydonni egallaydi. Ushbu lagerda 28 ta maktab, 3 ta shifoxona va 4 ta tibbiy markaz mavjud.

Birinchi musulmonlar dunyoni fath qilishgan edi.

Chunki ular urushga “daraxtlarni kesmanglar!” buyrug‘i ila borishardi.

Bundan ham muhimrog‘i – birinchisi ular bir-birlarini kesishmas edi.

200

Haqiqiy faqirlik o‘z qo‘lingdagini kam hisoblab, o‘zgalar qo‘lidagini ko‘p ko‘rishidir.

201

Oddiy kishi o‘z nafsini uchun yaxshi ko‘radi.

Karim inson odamlar uchun yaxshi ko‘radi.

Javod (saxiy) esa Alloh uchun yaxshi ko‘radi.

202

Har bir ayol go‘zaldir va lekin hamma go‘zal (narsalar) ayol emas.

203

Sening bo‘yiningga tushgan bu og‘ir ma’suliyatga hamdardman.

Albatta, erkaklar bilan to‘lib-toshgan bu sayyorada birgina ayol bo‘lish ozor yetkazuvchi ishdir.

204

Insonlarning kasbi mahoratdir, uni saqlamoq esa tajriba.

205

Ba’zida biz sukut saqlaymiz.

Sukut hikmat bo‘lgani uchun emas, balki biz gap foyda bermasligini bilganimiz uchun.

206

Dunyoda shunday kishilar borki, ularga erishish aql bovar qilmas ish va lekin ularni yo‘qotish ham ahmoqlikdir.

207

U juda ham saxiy inson edi.

O‘zi ega bo‘lgan barcha narsalarni boshqalar bilan bo‘lishardi. Shu jumladan sirlarini ham.

208

Inson huquqlari deklaratsiyasi aytadiki: “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega”.

Islom aytadiki: “Ilm talab qilish farzdir”.

Ular o‘z huquqlaridan foydalanib ilgarilab ketishdi, biz esa farzni ado qilmaganimiz uchun ortda qoldik.

209

Tug‘ilgan yiling o‘lgan yilingga o‘xshaydi. Xuddi gazetalardagi o‘lim sonlari kabi.

Raqamlarning o‘zigina xolos...

210

1313-yil Qirol Filipp moxov kasaliga chalingan hammani yoqishni buyurdi.

Chunki Yevropada kasallikka osmonning la’nati deya e’tiqod qilishardi.

707-yilda esa musulmonlar davolanish uchu shifoxonaga borishardi...

Biz buyuklar edik!

211

Bolaligimda masjidimizning muloyim bir shayxi “ibn as-sabiyl”²⁵ ma’nosini sharhlab berganlarida yo‘lovchilarga rosa achingan edim.

²⁵ Yo‘lovchi

Bugun bo'lsa, yo'qotishga hech narsalari bo'lmagan o'sha baxtli insonlarga
"hasad" qilaman.

212

Islom qilich bilan yoyilmagan, balki yashirin haqiqat ila yoyilgandir.

Agar qilich bilan yoyilganda edi, qilichlar yo'q bo'lishi bilan u ham yo'q bo'lardi.

Lekin qilich uning uchun yo'lga tosh yotqizgan.

Quvvati bo'lmagan haqiqat bilan odamlar xuddi botil singari muomala qiladilar.

213

Hech bir kitob yo'qki, xoh bir fikr, xoh darslik, xoh ilmiy ish va yoki bir ijtihod
bo'lsin, uning muqaddimasi xatoni yoki to'g'rini qabul qilishdan xoli emas.

Faqatgina Qur'on bundan mustasno:

"Alif, la:m , miym. Bu kitobda shak-shubha yo'q".²⁶

214

Hamma narsani satr qil. Faqatgina haqiatlarni och.

215

Nabiy sollallohu alayhi vasallam bir daraxt xodasining ustida xutba qilar edilar. U
zotga minbar qilib berilgach, xoda u zot firoqlarida yig'lab mungli tovush chiqardi.

Ey xatiblar! Shunday gapiringlarki, ayrilsangiz minbarlar sizni sog'inadigan
bo'lsin, hozir bo'lganingizda la'natlaydigan emas.

216

G'ordagi inson yashashi uchun ko'p eslashi kerak bo'lsa, shahardagi inson yashashi
uchun ko'p unutishi kerak.

217

²⁶ Baqara, 2-oyat

Agar senga qalbing va qadr-qimmating o'rtasida tanlov imkoniyati berilsa, qadr-qimmatingni tanla! Aks holda har ikkisini yo'qotasan.

O'zing yaxshi ko'rgan inson uchun seni yaxshi ko'rgan insonga beparvo bo'lma, yo'qsa har ikkisidan ayrilasan.

O'zingdagi narsaga qanoat qil, odamlar huzuridagi narsalardan ham chiroylirog'ini topasan.

218

Bugun (1-oktabr) “Butunjahon qahva kuni”.

Bu sayyorada maxsus kuni bo'lmagan yagona narsa – bu inson ko'rinadi...

219

Makka mushriklari Nabiyy (sollallohu alayhi vasallam) ni o'ldirish va qonlarini qabilalar o'rtasida taqsimlab yuborish uchun har bir qabiladan bir odamni tanlashdi. U zot esa ularga omonatlarini qaytarish uchun o'rnilariga amakilarining o'g'lini qoldirdilar.

Odamlarga ular senga qilganidek muomala qilma!

220

Qadimda ularda dori kam bo'lsa ham salomatlik ko'p, to'shak kam bo'lsa ham uyqu bisyor, kulguli seriallar kam bo'lsa ham kulgu serob, soatlar kam bo'lsa ham vaqtni his qilish ko'p edi.

Ular biz qila olmagan ishlarni qildilar.

Ular yashadilar!

221

Bugungi kun adabiyotining muammolaridan biri:

Yozuvchilar ko'p, o'quvchilar kam; shoirlar ko'p, she'rlar kam.

222

Ramazon kirib kelishiga qaramasdan dunyoda yomonlik kezaveradi. Ishonchim komil, Alloh shaytonlarni kamchilik o'zimizda ekanini ko'rsatish uchun kishanlaydi.

223

Muammoimiz shuki, biz

- din kishisini dindan azizroq deb bilamiz;
- qasidadan ko'ra shoirga ko'proq e'tibor beramiz;
- ish boshini ishdam ko'ra ko'proq maqtaymiz.

Fikrdan ko'ra shaxsga bo'lgan e'tiborimiz katta.

224

O'zaro munosabatlarda nobud bo'ladigan eng birinchi narsa bu ixtiyorsizlikdir. Ixtiyorsizlik boshqalar bilan xuddi o'zing bilan gaplashganingdek gaplashishingdir.

225

Joynamoz qanchalik go'zal bo'lmasin u bilan xushu'ning o'rtasida hech qanday aloqa yo'q.

Biz qalbimiz bilan sajda qilamiz. Bas, kim qalbini go'zallashtira olsa, buni bajarsin!

226

To'rt narsa to'rt narsasiz kamolga yetmaydi:

- ayollik hayo bilan;
- mardlik shijoat bilan;

- hukmronlik adolat bilan;
- amal ixlos bilan.

227

Bugungi kundagi vijdon muammosi uning o'z egalaridan oldin o'lishidadir.

228

Kimki kambag'allikni ketkazish uchun neft kerak deb o'ylasa, u holda Umar ibn Abdulazizga qarasin.

Ish biron kun sen egalik qilayotgan narsaga bog'liq emas, balki uni qanday boshqarishinga bog'liq.

229

Hech kimdan umidsiz bo'lma!

Chunki Muso bilan olishuvga kelgan sehrgarlar arralandilar va bu ish ularni dinlaridan qaytara olmadi.

Hech kimga ortiqcha ishonma!

Chunki u bilan birga dengiz kechib o'tganlar buzoqqa ibodat qilib yubordilar.

230

Bugungi kunda seni sug'urib tashlab, o'ringga boshqa narsa ekishga harakat qiladiganlarni uchratish oddiy hol bo'lib qoldi.

231

Boylik dunyoning barchasini sotib olishga qodir bo'lishing emas, balki dunyo yig'ilib seni sotib ola olmasligidir.

Maktub yozib, shisha idishga joylab, uni dengizga otadigan odam, dengiz hech kimga xat tashuvchilik qilmasligini bilar edi. Shunchaki, ba'zida yozishga ehtiyoj tug'iladi...
